

Список литературы

1. Мелиев Х.А., О.Жамолитдинова. Профессиональная компетентность и мастерство. Ташкент. Издательство Зарварака, 2021., 284 стр.
2. Кузьмина Е.Ю., Соклова И.В. Сураг И.Л. Инновационное развитие как фактор конкурентоспособности национальной экономики. Москва., 2020 г. 63-68 стр.
3. Джамалов Р.И. Инновационное развитие, как фактор повышения конкурентоспособности современного предприятия. Санкт-Петербург, 2022 г. 9-14 стр.
4. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.
5. Tidd, J., Bessant, J., & Pavitt, K. (2018). *Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change*. 6th ed. Hoboken, NJ: Wiley.
6. Drucker, P. F. (1985). *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. New York: Harper & Row.

OLIV TA'LIM TIZIMI BOSHQARUV XODIMLARINING MENEJERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI (SINGAPUR, FINLANDIYA DAVLATLARI MISOLIDA)

Raximov Mirvali Donayevich

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, tayanch doktorant
mirvali_rakhimov_90@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan Oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini oshirish bo'yicha ilmiy xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tajribasi, jumladan Singapur hamda Finlandiya oliy ta'lim tizimi va unda faoliyat olib borilayotgan samarali boshqaruv tizimi hamda ularning metodik nazariyalari atroflicha tahlil etilib, mazkur mavzu yuzasidan o'zimizning oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini oshirishga samarali vosita bo'lib xizmat qiladigan usul vosita hamda nazariyalar tahlil etilganligini guvohi bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, xorijiy tajriba, menejerlik, liderlik dasturlari, strategiya, tizimli yondashuv, boshqaruv nazariyalari, samarali ilmiy metod.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КАЧЕСТВ АДМИНИСТРАТИВНОГО ПЕРСОНАЛА СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ СИНГАПУРА, ФИНЛЯНДИИ)

Рахимов Мирвали Донаевич

Центр исследований развития высшего образования, базовый докторант
mirvali_rakhimov_90@mail.ru

Аннотация: В данной статье автор всесторонне анализирует опыт зарубежных вузов по совершенствованию управленческих качеств управленческих кадров системы высшего образования, в том числе сингапурской и финской систем высшего образования, а также действующие в них эффективные системы управления и их методологические теории. В статье показано, что по данной теме проанализированы методы и теории, являющиеся действенными инструментами совершенствования управленческих качеств управленческих кадров отечественной системы высшего образования.

Ключевые слова: Высшее образование, зарубежный опыт, менеджмент, программы лидерства, стратегия, системный подход, теории управления, эффективный научный метод.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING MANAGERIAL CAPABILITIES OF HIGHER EDUCATION ADMINISTRATIVE PERSONNEL (BASED ON THE EXAMPLES OF SINGAPORE AND FINLAND)

Rakhimov Mirvali Donayevich


Center for Higher Education Development Research, Basic Doctoral Student
mirvali_rakhimov_90@mail.ru

Annotation: In this article, the author comprehensively analyzes the experience of foreign universities in improving the managerial skills of higher education managers, including the Singaporean and Finnish higher education systems, as well as the effective management systems and methodological theories they employ. The article demonstrates that the methods and theories analyzed on this topic are effective tools for improving the managerial skills of managers in the Russian higher education system.

Keywords: Higher education, foreign experience, leadership programs, strategy, systematic approach, management, management theories, effective scientific method.

Kirish. Bugungi zamonaviy davrda oliy ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – yuqori malakali, strategik fikrlovchi va samarali boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bunday salohiyatli kadrlarni tayyorlashda nafaqat o'quv dasturlari va metodikalar ham muhimdir. Ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning menejerlik sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holatda hozirgi raqamlashgan jamiyatda qisqa muddatda shiddat bilan rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning samarali boshqaruv faoliyatini o'zimizga joriy etish yuzasidan bir qancha rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganib chiqishimiz zarurati bugungi kun talabiga aylanmoqda. Xususan ushbu yo'nalishda dunyoning turli mamlakatlari oliy ta'lim muassasalarini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish va boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlerini rivojlantirish bo'yicha boy tajribaga ega. Jumladan, bunga misol tariqasida Singapur va Finlandiya oliy ta'lim tizimlarida boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlerini rivojlantirishning ilg'or tajribalarini tahlil qilib o'tamiz.

Singapurning oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarini tayyorlash tajribasi haqida so'z yuritar ekanmiz Singapur - bu ilg'or oliy ta'lim tizimiga ega bo'lgan mamlakat bo'lib, xalqaro reytinglarda doimiy ravishda yuqori o'rinlar[5]ni [1-rasm] egallab kelmoqda. Jumladan Singapur milliy universiteti 2025-yilda 17-o'rinni egallaganligi, shuningdek ushbu universitetning taqdiqot sifat darajasi bo'yicha 95,7%ni tashkil etganligi ilmiy tadqiqotlar samarali yo'lga qo'yilganligining yaqqol misolidir. Singapur oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarining strategik va istiqbolli fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishlari uchun alohida e'tibor qaratiladi. 1-rasm



Buning uchun ular:

Uzoq muddatli rejalashtirish: Boshqaruv xodimlari globallashtirish, texnologik o'zgarishlar va bozor ehtiyojlarini hisobga olgan holda uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishga o'rgatiladi.

Global nuqtai nazar: Xalqaro hamkorlik, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi, chet eldagi universitetlar bilan qo'shma dasturlar orqali boshqaruv xodimlarining global nuqtai nazarga ya'ni ularning zamonaviy dunyopqarashiga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Innovatsion yondashuv: Har qanday sohada innovatsiyalarni qo'llash va rag'batlantirish boshqaruv xodimlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Singapurda oliy ta'lim muassasalarining boshqaruvchilari nafaqat ma'muriy vazifalarni bajaradigan xodimlar, balki ilg'or fikrlovchi liderlar sifatida tayyorlanadi. Buning uchun quyidagi choralar ko'riladi:

Maxsus liderlik dasturlari: Boshqaruv xodimlari uchun xalqaro miqyosdagi universitetlar va biznes maktablari hamkorligida tashkil etilgan maxsus liderlik dasturlari mavjud.

Amaliy tajriba: Yosh va istiqbolli xodimlar ma'lum muddat amaliyotdan o'tish yoki chet el universitetlarida tahsil olish orqali tajriba orttirishlari uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Mentorlik tizimi: Tajribali boshqaruvchilar yosh xodimlarga mentorlik qilish orqali ularning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

Singapur oliy ta'limida boshqaruv xodimlarining asosiy vazifasi ta'lim sifatini doimiy oshirishdir. Buning uchun ular quyidagi usullarni qo'llaydilar:

Doimiy monitoring va baholash: Ta'lim jarayonining barcha bosqichlari doimiy monitoring qilinadi va baholanadi.

Xalqaro standartlar: Ta'lim jarayoni va boshqaruv xalqaro standartlar (masalan, ISO) [5] asosida tashkil etiladi.

Talabalar natijalarini tahli qilish: Har bir talabaning akademik natijalari va ularning keyingi karyerasi diqqat bilan kuzatiladi va tahli qilinadi. Finlandiya oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini rivojlantirish bo'yicha katta amaliy tajribaga ega. Finlandiya tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, bugungi kunda Finlandiyada jami 20 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud. Ushbu oliy ta'lim muassasalarining o'ntasi sohalararo, oltitasi tor yo'nalishlar bo'yicha, to'rttasi esa madaniyat va san'at yo'nalishida faoliyat yuritadi. 1991-yilgi qonunga binoan mamlakatdagi texnikaga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalariga politexnika instituti maqomi berilgan. Quyidagi omillar Finlandiya oliy ta'lim muassasalari uchun xos xususiyatlardan hisoblanadi:

- Barcha oliy ta'lim muassasalari davlatga tegishli;
- Barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish bepul;
- Barcha oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'lim markazlari mavjud;
- Oliy ta'lim muassasalarining vakolatlari keng; [6]

Oliy ta'lim muassasalarining vakolatlari Finlandiya oliy ta'lim tizimi butun dunyoda o'zining innovatsion yondashuvi, tenglik tamoyillari va yuqori natijalari bilan tanilgan. Mamlakatda ta'lim sohasidagi islohotlar, shu jumladan boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar keng qamrovli va uzoq muddatli hisoblanadi. Unga ko'ra Finlandiya oliy ta'lim tizimida boshqaruv xodimlariga keng ko'lamli mustaqillik va erkinlik berilgan bo'lib, bu quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Qaror qabul qilish erkinligi: Boshqaruv xodimlari o'z muassasalarining rivojlanish strategiyasini mustaqil ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish huquqiga ega.

Mablag'lardan foydalanish: Davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish va qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha keng vakolatlari.

Kadrlar siyosati: Professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarni ishga olish, ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlash kabi masalalarda mustaqil qaror qabul qilish.

Hamkorlik va jamoada ishlash madaniyati. Finlandiya oliy ta'limida boshqaruv xodimlari hamkorlikka asoslangan ish uslubini olib borishga intiladilar. Buning uchun quyidagi tamoyillar amalga oshiriladi:

Ochiq muloqot: Barcha darajadagi xodimlar va talabalar bilan ochiq muloqot qilish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish.

Qarorlar qabul qilishda ishtirok etish: Muhim qararlarni qabul qilishda professor-o'qituvchilar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikrlari hisobga olinadi.

Tarmoqli hamkorlik: Boshqa oliy ta'lim muassasalari, tadbirkorlik subyektlari va davlat idoralari bilan doimiy hamkorlik. Innovatsiyalarni qo'llash va rag'batlantirish.

Finlandiya oliy ta'limida innovatsiyalar nafaqat tadqiqot sohasida, balki boshqaruv jarayonlarida ham qo'llaniladi. Boshqaruv xodimlari uchun quyidagilar joriy etilgan:

Yangi texnologiyalarni joriy etish: Ta'lim va boshqaruv jarayonlarini yaxshilash uchun yangi texnologiyalarni doimiy joriy etish.

Eksperimental yondashuv: Yangi g'oyalarni sinab ko'rishga, hatto ular muvaffaqiyatsiz tugalsa ham, bu tajribadan saboq olishga tayyor bo'lish.

Tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etish: Ilmiy tadqiqot natijalarini boshqaruv amaliyotiga tatbiq etish.

Singapur va Finlandiya tajribasini o'rganish natijasida O'zbekiston oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini rivojlantirish uchun quyidagi takliflar berish mumkin:

1. Boshqaruv xodimlari uchun maxsus malaka oshirish dasturlarini joriy etish. Bunda xalqaro tajribalarni, ayniqsa Singapur va Finlandiya kabi mamlakatlar yutuqlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratish.

2. Boshqaruv xodimlariga keng avtonomiya va mas'uliyat berish. Finlandiya tajribasidan iqtibos olgan holda, oliy ta'lim muassasalarining boshqaruviga erkinlik darajasini oshirish.

3. Strategik va istiqbolli fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Singapur tajribasiga asoslanib, boshqaruv xodimlarini globallashtirish sharoitida uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishga o'rgatish.

4. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Boshqaruv xodimlarining chet eldagi nufuzli ta'lim muassasalari bilan tajriba almashinuv dasturlarida ishtirok etishini ta'minlash.

5. Innovatsion g'oyalarni qo'llash va rag'batlantirish. Boshqaruv xodimlarini yangi texnologiyalar va progressiv usullarni joriy etishga ilmiy-eksperimental yondashuvni rivojlantirish.

6. Ochiq va shaffof muloqot tizimini yaratish. Barcha darajadagi xodimlar, talabalar va manfaatdor tomonlar bilan doimiy muloqotni yo'lga qo'yish.

7. Boshqaruv samaradorligini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish. Xalqaro standartlarga asoslangan monitoring va baholash tizimini joriy etish.

Xulosa. Singapur va Finlandiya kabi mamlakatlarning oliy ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini rivojlantirishdagi tajribalari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun barcha omillarni – strategik rejalashtirish, liderlik, innovatsion yondashuv, hamkorlik va mustaqillikni uyg'unlashtirish lozim. O'zbekiston oliy ta'limi uchun bu tajribalarni o'rganish va mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish orqali boshqaruv xodimlarining menejerlik sifatlarini yanada takomillashtirish, shu bilan birga butun oliy ta'lim tizimining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati mavjud. Ilmiy asoslangan yondashuv, strategik fikrlash, tizimli yondashuv va liderlik fazilatlarini xodimlarni zamonaviy menejment talablariga moslashtiradi va oliy ta'lim muassasalarini raqobatbardosh, innovatsion va barqaror rivojlanishga yo'naltiradi. Shu boisdan, oliy ta'lim tizimi xodimlarining menejerlik salohiyatini oshirishda nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, maxsus o'quv kurslari, seminar-treninglar va kouching dasturlarini yo'lga qo'yish dolzarb vazifa sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris, 2006.
2. Marginson, S. (2011). Higher Education in East Asia and Singapore: Rise of the Confucian Model. Higher Education.
3. Tirri, K. (2014). The Last 40 Years in Finnish Teacher Education. Journal of Education for Teaching.
4. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Y. Menejment: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 2000.
5. Internet saytlari: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings>

AYOLLARNING ISH BILAN BANDLIGINI IQTISODIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Nabixo'jayeva Dilafro'z Sobir qizi
Sambhram universiteti o'qituvchisi
dilafroznabuxujayeva@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada mehnatga layoqatli qishloq hududlarida yashovchi ayollarning bandlik muammolari tadqiq etilgan. Mehnat bilan bandlikning shakllanishi qonuniyatlaridan kelib chiqib, qishloqda mulkchilik shakllarini takomillashtirish, qishloq ayollari orasida kichik va o'rta tadbirkorlik, kasanachilikni yana-da rivojlantirish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: mahalliyashtirish, modernizatsiyalash, ayollar bandligi, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik.

IMPROVING THE ECONOMIC REGULATION OF WOMEN'S EMPLOYMENT

Nabikhajayeva Dilafroz Sobir daughter
Sambhram university lecturer
dilafroznabuxujayeva@gmail.com

Annotation: the article explores the employment problems of women living in working-age rural areas. From the laws of the formation of employment with Labor, directions have been proposed to improve the forms of ownership in the village, small and medium-sized entrepreneurship among rural women, the development of workmanship again.